

**BADIIY ASAR VA OBRAZLARNING KITOBXONLARGA  
TARBIYAVIY AHAMIYATI.**

*Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti*

***O'g'ilxon Tolibjonovna Vaxabova***

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

***Umarova Mohlaroyim Abdullajon qizi***

**Annotatsiya:** Tarbiya hayotimizda juda muhim o'rin tutadi. Bu maqolada badiiy asarlardagi obrazlarning kitob o'quvchiga tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z boradi. Asardagi obrazlar orqali kitobxon axloqiy tanlovlar, ayolning jamiyatdagi o'rni, ilm va ma'rifatning ahamiyati haqida chuqur mushohada yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, ta'lim, badiiy asar, adabiyot.

**THE EDUCATIONAL VALUE OF WORKS OF ART AND IMAGES  
FOR READERS.**

**Abstract:** Education plays a very important role in our lives. This article discusses the educational value of images in works of art for the reader. Through the images in the work, the reader is guided to a deep reflection on moral choices, the role of women in society, and the importance of science and enlightenment.

**Keywords:** education, education, work of art, literature.

**ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ЦЕННОСТЬ ПРОИЗВЕДЕНИЙ  
ИСКУССТВА И ИЗОБРАЖЕНИЙ ДЛЯ ЧИТАТЕЛЕЙ.**

**Аннотация:** Образование играет очень важную роль в нашей жизни. В статье рассматривается образовательная ценность образов в художественных произведениях для читателя. Образы в произведении знакомят читателя с глубокими размышлениями о моральном выборе, роли

*женщин в обществе, а также о важности науки и просвещения.*

**Ключевые слова:** *образование, воспитание, произведение искусства, литература.*

Badiiy asarlar hayotimizga turli ranglar olib kirishga xizmat qiladigan vositalar hisoblanadi. Ulardagi turli obzarlar, harakatlar, hissiyotlar, vaziyatlar bizning hayotimizga qanchalik ta'sir qilishi haqida o'ylab korganmisiz? Bu maqolada aynan shunday savollarga javob topamiz.

Yozuvchi va shoirlar asarlarida o'zlarining his-tuyg'ularini, hayotiy tajribalarini kitobxonlarga ma'naviy ozuqa sifatida yetkazib berishga harakat qiladilar. Bunday asarlardan biri o'zbek romanchiligining asoschisi, buyuk yozuvchilardan biri Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidir. Badiiy asarlarning kitobxonlarga tarbiyaviy ahamiyatini aynan shu asar misolida ko'rib chiqamiz. Qodiriy romanlaridagi ana shunday go'zal estetik g'oyalardan biri – iymon- e'tiqod masalasi bugungi kunda qadrlanib- kattalashib, ko'zga aniqroq ko'rinadigan, fikrga quvvat, dilga zavq beradigan holat kasb etmoqda. "O'tkan kunlar" romanidagi ma'naviy-ruhiy jihatidan nisbatan mukammal qahramonlardan biri - Yusufbek hoji obrazidir.<sup>1</sup>

Asarning tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z yuritishdan oldin, tarbiya o'zi nima degan savolga javob topsak. Tarbiya bu- shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonni yuksak axloqiy qadriyatlar, sabr-toqat, mehnatsevarlik, hurmat va o'zini tutish kabi fazilatlarga o'rgatadi. Bu jarayon ko'pincha ota-onalar, o'qituvchilar, jamoatchilik va diniy rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi. Tarbiya, shuningdek, madaniyat, ma'naviyat va axloqiy tuyg'ularni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.<sup>2</sup> Tarbiya

---

<sup>1</sup> Ismoilova+Marhabo+Boysarovna. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 19-son.

<sup>2</sup> <https://milliytarbiya.uz/blog-detail/tarbiya-oz-nima-2>

insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya borasidagi ma'lumotlarni bir-biridan ayri holatda tasavvur qilish mumkin emas. Bu ikkisi bir jassaddagi bel va qorin kabidir. Biri ikkinchisiz hech narsaga yaramaydi balkiy noqis bo'ladi. Shuning uchun ham dunyo miqyosida insoniyatning, xususan, yoshlarning tarbiyasi buzilib ketayotgani to'g'risida tez-tez tashvishli xabarlar tarqatiladi va bu borada odamni daxshatga soladigan raqamlar taqdim qilinadi. Vaholanki, dunyo miqyosida oladigan bo'lsak, XX-XXI asrlarda avvalgi asrlardagiga nisbatan savodsizlikka qarshi keskinroq choralar ko'rildi, ta'lim tizimi kuchaytirilib takomillashtirildi. Umumiy ta'lim kirib bormagan yurt deyarli qolmadi. Xattoki ba'zi mamlakatlar aholisi ilm-fan bo'yicha inson ko'zi ko'rmagan, qulog'i eshitmagan yutuq va taraqqiyotlarni qo'lga kiritdi. Lekin asosiy ko'zlangan maqsadga erishilayotgani yo'q. Shuning uchun ham ilm-fan rivojlangan mamlakatlarda tarbiasizlik, axloqsizlik, ma'naviyatsizlik oriyatsizlik, madaniyatsizlik va hattoki inson zotiga mutlaqo to'g'ri kelmayidigan illatlar kundan – kunga keng ko'lamda yoyilib boryapti. Albatta, buning sabablari ko'p. Shulardan biri va eng asosiysi “ Tarbiya” degan buyuk bir ne'matdan, mas'uliyatdan va vazifalardan yuz o'girilishidir.<sup>3</sup> Tarbiasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham rivojlana olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Asar qahramonlari turli xarakterli, turli hissiyotli qilib tasvirlangan. Aslini olib qaraganda hayotda ham shunday, har insonda turli xil xarakter mavjud. Tarbiya va ta'lim doimo yonma-yon turadigan tushunchalar hisoblanadi. Ta'limsiz tarbiya, tarbiasiz ta'lim mavjud emas. Endi esa mavzuga qaytadigan bo'lsak, “O'tkan kunlar” asarida nafaqat Yusufbek hoji obrazi balki Otabek kabi obrazlarning ham kitobxon o'rnak oladigan tarbiyaviy xislatlari bor. Otabek — xalq taqdiriga befarq bo'lmagan, ijtimoiy adolatni tiklashni orzu qilgan yigit sifatida tasvirlanadi. U nafaqat o'z oilasi va yaqinlarini, balki butun xalqini baxtli ko'rishni istaydi. Otabekning harakati orqali kitobxon vatanparvarlik, millatparvarlik g'oyalari bilan

---

<sup>3</sup> <https://kukaldosh.uz/24/05/2022/8339>

yashash zarurligini anglaydi. Uning ota-onasiga ko'rsatgan hurmatini ko'rib kitob o'quvchida ham shu xislatlar shakllanadi. Otabek — o'z halolligi, insofli qarorlari, to'g'riso'zligi bilan kitobxonga insoniy fazilatlarning naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. U hech qachon yolg'on, xiyonat, hiylaga murojaat qilmaydi. Bu xususiyatlar zamonaviy yoshlar uchun namuna bo'lishi kerak.

Bundan tashqari, asarda ayol obrazi, xususan Kumush, Oftoboyim, O'zbekoyim, Zaynab qiyofalari orqali jamiyatdagi ayolning o'rni, hurmati, taqdirining murakkabligi yoritiladi. Kumush obrazi — mehribon, sabrli, fidoyi ayol timsoli sifatida yosh avlodni ona, opa, rafika kabi rollarda ayollarga hurmat bilan qarashga o'rgatadi.

Asarda diniy xurofot, johillik, orqaga tortuvchi urf-odatlar tanqid qilinadi. Otabek esa ma'rifat, savod, ilm bilan oldinga borish kerakligini anglatadi. Bu kitobxonni fikrlashga, savodli bo'lishga, yangilikni qabul qilishga undaydi. Asardagi islom farzlarini ado etish ham alohida o'rin kasb etadi. Axloq ustiga qurilgan islom dinining go'zal ahkomlarini ado etish ham aynan shu asarda ma'lum bir ma'noda tarvirlab ketilgan

Otabek va Kumush obrazlari esa toza, samimiy, chin yurakdan kechgan muhabbat timsolidir. Ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari-o'quvchilarni sadoqat, vafo, ishonch kabi go'zal his-tuyg'ularga undaydi.

O'zbek adabiyotidagi faqatgina bu asar emas, balki barcha asarlar tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'zbek adabiyotidagi tarixiy asarlar orqali kitobxon o'z millatining o'tmishini, ajdodlarining or-nomusini his qiladi. Bu esa unda o'zligini anglash, xalqiga, tarixiga hurmat bilan qarash, mustaqil fikr yuritish kabi tarbiyaviy jihatlarni shakllantiradi. Nafaqat 20-asr badiiy adabiyotlari balki, zamonaviy adabiyotlarda ham tarbiyaviy ruh yuksak maqomda. Bugungi kunda yozilayotgan asarlarda ham yoshlar hayoti, zamonaviy muammolar, axloqiy tanlovlar keng yoritilmoqda. Masalan, Muhammad Ali, Ulug'bek Hamdam, Erkin A'zam kabi yozuvchilarning asarlari yosh avlodni halollik, sabr, ijtimoiy mas'uliyat, or-nomusli yashashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek badiiy adabiyoti — bu yosh kitobxonning qalbini shakllantiruvchi, uni ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalaydigan kuchli vositadir. Har bir asar, har bir obraz, har bir voqea yoshlar ongida iz qoldiradi. Shuning uchun yoshlarimiz qancha ko'p badiiy asar o'qisa, shuncha yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'ladi, jamiyatda munosib o'rin egallaydi va tarbiyaviy sifatlarga shunchalik ko'p ega bo'ladi.

**Foydalanilgan asosiy adabiy manbalar:**

1. Abdulla Qodiriy. “O'tgan kunlar” (roman). G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot instituti. “O'zbek adabiyoti tarixi”. 4-jild.
2. To'xtaboy Go'ziyev. “O'zbek romanchiligi va realizm an'analari”.
3. Z. Komilov. “Adabiyot nazariyasi va tahlil usullari”.
4. <https://milliytarbiya.uz/blog-detail/tarbiya-oz-nima-2>
5. <https://kukaldosh.uz/24/05/2022/8339>